**Kalit so`zlar:** ta`lim sohasi, iqtisodchilar, ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlik, integral ko`rsatkichlar, diversifikatsiya, ilg`or funktsional imkoniyatlar, bozor munosabatlari.

### KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ta`lim sohasini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida qaralib, jahon miqiyosida "O`zbek modeli" deb atalgan uzluksiz ta`lim tizimi yaratildi. Ta`limning barcha turlarini rivojlantirish bo`yicha salmoqli natijalarga erishilib, jumladan, tubdan yangilangan oliy ta`lim tizimi yaratilib, iqtisodiyotni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab-chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo`yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o`ylangan dasturlar qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda.

O`zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida har tomonlama yetuk, jahon talablariga javob beradigan iqtisodchilarni tayyorlashda boshqa fanlar qatori «Iqtisodiy geografiya va ekologiya» fani ham katta o`rin tutadi. U bo`lajak iqtisodchilarga tabiiy resurslar, ularning jahon va O`zbekiston bo`yicha tarqalishi, jahon va O`zbekiston aholisi, jahon sanoati, qishloq xo`jaligi, transporti va xalqaro iqtisodiy aloqalar, geoekologiya muammolar va ularning yechimi, O`zbekistondagi tarkib topgan ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlikni ta`minlash to`g`risida bilimlar beradi.

Bugungi kunda jadal sur`atlar bilan rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitida fanni o`rganish ehtiyoji kun sayin kengayib bormoqda. Zamonaviy mutaxassis kadr iqtisodiy geografiya va ekologiyaning sir-asrorlarini mukammal o`zlashtirgan bo`lishi davr talabidir.

Ekologik va iqtisodiy tadqiqotlarning axborot jihatlarini tahlil qilish bizga axborotni qo`llab-quvvatlash tizimi hududiy ma`lumotlarni yig`ish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun ilg`or funktsional imkoniyatlarga ega texnologiyalarga asoslangan bo`lishi kerakligi to`g`risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Eko-logik va iqtisodiy xaritalarni yaratishda kat-ta hajmdagi ma`lumotlardan foydalaniladi: fizik va iqtisodiy-



географик materiallar, statistik ma'lumotlar, analitik va hisoblangan integral ko'rsatkichlar. Axborotning butun hajmini o'zaro bog'lash muammosini ishlatil-gan materiallarni yagona geoaxborot tizimi (GAT)ga birlashtirishga imkon beradigan, yangi kelgan ma'lumotlarni zudlik bilan qayta ish-lashni va ularning kartografik vizualizatsiya-sini ta'minlaydigan geoaxborot texnologiya-lari yordamida hal qilish mumkin. Mintaqaviy rivojlanishning turli stsenariylarini prog-nozlashga asoslangan modellarni tezkor qurish uchun keng istiqbollar ochiladi [2].

So'nggi o'n yilliklarda juda ko'plab axborotni yig'ish, qayta ishlash va dastlabki tahlil qilishning avtomatlashtirilgan texnik tizimlari paydo bo'ldi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimlarning hech biri si-fat jihatidan tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilishga qo'yiladigan barcha talablarni qondiradigan yakuniy tahliliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga qodir emas [3].

Shu munosabat bilan, geografik axborot tizimlaridan iqtisodiy tartibga solish maqsadlarida foydalanish masalasi tobora ortib bormoqda va barqaror mintaqaviy rivojla-nishni iqtisodiy tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, va hududlar va umuman davlat manfaat-larini maksimal darajada oshiradigan asosiy vositasi sifatida qaralmoqda [4].

Hozirgi paytda jahon iqtisodiyoti ri-vojlanishning yangi modelini yaratish va tat-biq etishda, mamlakatlarning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish bilan bog'liq tadqiqotlarda global ekologik o'zgarishlar hi-sobga olinmoqda va "Yashil iqtisodiyot" shaklla-nishi ustuvor maqsad etib qo'yilmoqda [5].

Hozirgi kunda axborot tizimining ushbu bo'limi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bo-rishi natijasida u nafaqat texnik sohalarda, balki hayotimizning turli ijtimoiy sohalarida ham qo'llanilib kelinmoqda. GATning qo'llanilishi sohalari keng bo'lib, u turli holatlar-da, jumladan sog'liqni saqlashda yangi klinika va shifoxonalarni geografik jihatdan mos va aholiga qulay qilib joylashtirish jarayonida, yuk tashish bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun yo'l marshrutlari va jadvallarini tuzish hamda aniqlashda, avtomobil yo'llarini quruvchi korxonalariga yangi trassa va yo'llarni loyihalashda eng maqbul variantni tanlash paytida, shuningdek, davlat fondidagi va fermerlar uchun yangi yerlarni to'g'ri va oqilona hisoblashda, yangi yerlarni o'zlashtirishda, yerlarning holatini aniqlash va ular to'g'risida yetarli ma'lumot olishda juda qo'l keladi [6].

So'nggi paytlarda "Dunyoning geoiqtiso-diy atlasini" yaratish va undan global jarayon-larning keng panoramasini aks ettirishda foydalanish imkoniyatlari haqida qiziqarli g'oyalari ilgari surilmoqda. Bu g'oyalardan biri E.G.Kochetov tomonidan ilgari surilgan [7].

Dunyoning geoiqtisodiy atlasining quyi-dagi asosiy sahifalari taqdim etiladi: 1) siyo-siy; 2) tashkiliy va iqtisodiy; 3) geomoliya; 4) harbiy-strategik; 5) tovar va xizmatlar; 6) re-surs; 7) ekologik.

Hozirgi paytga kelib, Internet va dav-riy ilmiy jurnal va adabiyotlarda GATning ko`plab ta'riflari keltirilgan. Biz ayrimla-rini ko`rib chiqamiz:

1. Alber R. GAT – geografik ma'lumotlari-ni saqlash, ularga ishlov berish va natijalarni tasvirlay oladigan apparat-dasturli vosita va inson faoliyatidan iborat bo`lgan majmuadir [8].

2. Berry J. GAT – ichki pozitsionirlangan avtomatik fazoviy axborot tizimi bo`lib, ma'-lumotlarni kartografik tasvirlash, tahrir qi-lish va boshqarish uchun yaratiladi [7].

3. Clarce K.C. GAT – fazoviy taqsimlangan hodisalar, jarayonlar va voqealarni kuzatishda nuqtalar, chiziqlar va maydonlar ko`rinishida bo`lgan manbalarning ma'lumotlar bazasidan iborat bo`lgan axborot tizimining maxsus hola-tidir [10].

4. Konecny M. GAT – geografik tadqiqotlar va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun qulay bo`lgan ma'lumotlarni to`plashni, EHM xotirasiga kiritishni, ishlov be-riş va uzatishni amalga oshiruvchi shaxslar, texnika va tashkillashtirish vositalaridan iborat bo`lgan tizimdir[11].

5. Koshkarev A.V. GAT – fazoviy ma'lumot-larni yig`ish, ularga ishlov berish, tasvirlash, tarqatish, atrof-muhit ob'yektlarini ro`yxatga olish, natijani tahlil qilish, modellashti-rish, bashoratlash va boshqarish bilan bog`liq ilmiy va amaliy geografik masalalarni yechishda samarali foydalanish uchun joy haqidagi ma'lumotlar va bilimlarni birlashtirishni ta'minlaydigan apparat-dasturli inson-ma-shina majmuasidir[3].

6. Simonov A.V. GAT – geografik koordinatali ma'lumotlarni raqamli tasvirlash, to`ldirish, boshqarish, ko`paytirish, tahlil qilish, matematik-kartografik modellashtirish va obrazli tasvirlash uchun yaratilgan apparat-das-turli vositalar va algoritmik muolajalar ti-zimdir [4].

Bu keltirilgan ta'riflarda GAT tushunchasi to`g`risida o`xshash jihatlar mavjud bo`lsada, umuman bir-biridan farqlanuvchi iboralar ham ishlatilgan. Bundan tashqari ayrim olimlarning ta'kidlashicha, butun dunyoda geoaxborot tizimi (GAT) texnologiyalar Yerni keng foy-dalanuvchilar doirasi (Digital Earth) yo`nalishi [4,5] tomonidan o`rganish, davlatlarning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari kontekstida muhim ahamiyat kasb etmoqda [1], ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash [2] va yuqorida qayd etilgan ilmiy-ishlab chiqarish vazifala-ri kompleksini hal etish muqarrar ravishda geografiya, kartografiya, geoinformatika va unga bog`liq yo`nalishlar bo`yicha o`quv jarayoni-ning yuqori darajasini ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu masalada bir nechta vektorlarni ajratib ko`rsatish tavsiya etiladi: kartografiya fanining an'anaviy usullari va zamonaviy texnologiyalarning uyg`un kombinatsiyasi[3], fanlararo aloqalarni mustahkamlash [4], fan-lararo tadqiqotlarda interfaol va loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foyda-lanish, barqaror

rivojlanish sohasi [5], o`quv jarayoniga va talabalarning ilmiy faoliyatiga geoportal tizimlar va kartografik veb-xiz-matlarni joriy etish [6] va boshqalar.

GAT ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning hududiy va vaqtinchalik xususiyatlari to`g`risi-da zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ishlaydigan ijtimoiy-texnik komplekslarni anglatadi. Geoinformatika va kartografiya-ning o`zaro ta`siri geoinformatsion xarita-lashni shakllantirish uchun asos bo`ldi, uning mohiyati GAT asosida tabiiy va ijtimoiy-iq-tisodiy geotizimlarni avtomatlashtirilgan axborot va kartografik modellashtirishdir. Avvalo, bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish-ga qaratilgan xaritalarni tizimli (odatda ketma-ketlikda) yaratish va ulardan foydalanishni bildiradi.

Interaktiv geoaxborot xaritalashning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: hududning istalgan qismini ma`lum darajadagi tafsilotlar bilan ko`rsatish, hududiy tizimning holati to`g`risida ma`lumot olish, ma`lumotlarni to`plash va tuzatish, ko`plab hisob-lash muammolarini hal qilish, xaritada axborotni qayta ishlashning mavjud analitik usullaridan foydalanish va yangi ma`lumotlarni kiritish. Shu bilan birga, xaritadan foydalanish va tahlil natijalarini olish uchun samarali imkoniyatlarga ega bo`lishning xar xil shakllari mavjud (jadval shakli, kartografik tasvirlar, grafikalar va boshqalar).

Interaktiv geografik axborot xaritalari – qabul qilingan an`anaviy belgilar tizimida dasturiy vositalar yordamida vizualiza-tsiya qilingan va hududni aks ettirish va tahlil qilish, axborot va hisoblash muammolarini hal qilish uchun mo`ljallangan raqamli xarita. Bu sizga statistik ma`lumotlarni ularga bog`lash, matematik usullar yordamida tahlil qilish, ma`lumotlarni jadval va kartografik shaklda namoyish etishni tashkil qilish imkonini beradi.

Ekologik va iqtisodiy tizimlarni mo`dellashtirishda tematik ma`lumotlarni xar xil rangga ega bo`lgan namoyish etishga imkon beradigan rastrli GAT usullaridan foydalanish usuli juda keng tarqalgandir. Ishlab chi-qilgan ekologik va iqtisodiy xarita yerdan foydalanish, iqtisodiy-ijtimoiy rejalashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini boshqaradigan ma`muriy tashkilotlar va mintaqaviy organlar uchun ma`lumot bazasi sifatida xizmat qiladi. GAT texnologiyalari-dan foydalanish xaritadan statistik xizmat-lardan olingan ma`lumotlarni namoyish qilish va ularni o`z vaqtida qayta ishlash va namoyish qilishni ta`minlaydigan operatsion huj-jat sifatida foydalanishga imkon beradi. Geo-axborot xaritalashning muhim xususiyatlaridan biri uning ko`p miqyosli tabiati bo`lib, u mavjud ekologik va iqtisodiy vaziyatni turli darajalarda tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish strategiyasi va sxemalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini ta`minlashning GAT texnologiyalari asosida diagnostik indikatorlarini ishlab chiqish va uning dasturiy ta`minotini yaratish,



hududiy taraqqiyotning axborot bazasini ti-zimlashtirish, quyidagi vazifalarni yechish imkoniyatini yaratadi:

ishlab chiqarish kuchlarini (joylashtirish) oqilona tashkil etishda markaziy, hududiy (viloyat hokimliklari) va mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini aniqlashtirish, hududiy darajada iqtisodiy siyosat yuritish-ning maqsadi, vazifasi va dastaklarini (instrument) takomillashtirish;

hudud iqtisodiyotining tarmoq tuzili-shini optimallashtirish va ustuvor sohalarni rivojlantirish strategiyasi, hududiy iqtisodiy munosabatlarining me'yoriy asoslarini shakllantirish;

investitsion jozibadorlik darajasini oshirish, hudud ishlab chiqarish kuchlarining mahalliy ekologik vaziyatga ta'sirini, ishlab chiqarish jarayonlarini atrof-muhitga ta'sirini aniqlash.

Hozirgi kunda jahon miqyosida GAT texno-logiyalaridan foydalanish va ma'lumotlar bazasini yaratish barcha sohalarda, shuningdek, iqtisodiy hayotda ham zarur bo'lgan ma'lumotlar-ni to'liq avtomatlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda (bunda Amerika Qo'shma Shtatlarining Geografik axborot tizimi soha-sida faoliyat yurituvchi YeSPI kompaniyasi tomonidan yaratilgan xaritalar va geografik ma'lumotlar bilan ishlashga mo'ljallangan dasturdan foydalaniladi) [8]. Ilm-fan va amaliyotning hozirgi yoki kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini tizimli tahlil qilish natijalarini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar, kartografik materiallar, shu jumladan, prognoz va tavsiviy kartografik hujjatlar bilan tezkor ravishda ta'minlash yanada murakkab vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ma'lumotlarni sifatli tahlil qilishda tezkor va interaktiv texnologiyalar zarurdir. Bu kabi muammolarni yechishda albatta raqamli texnologiyalardan foydalanish samaralidir. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik vaziyat indikatorlarini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda GAT texnologiyalaridan foydalanish ancha imkoniyatlar yaratadi. GATning geodeziya va ayniqsa, kartografiya sohalarida qo'llanilishidan bir qancha yengillik-lar kelib chiqadi. Bunda ma'lumotlarni qayta ishlash va bosmaga chiqarish kabi ishlarga sarflanadiga vaqt va xarajatlar keskin kamayadi. Bundan tashqari ma'lumot olish bilan bog'liq bo'lgan ishlar vaqti qisqaradi hamda olinayotgan ma'lumotlar hajmi va sifati ortadi.

Ekologik kartalarni tuzish uchun quyida-gi birlamchi manbalar kerak:

- yerning masofadan zondlash ma'lumot-lari;
- mazkur hudud bo'yicha mavzuli kartalar yoki shunga yaqin mavzudagi kartalar;
- dala kuzatuvlari ma'lumotlari;
- ekologik monitoring va statsionar kuzatuv ma'lumotlari;

➤ aholi salomatligi, muhit ifloslani-shi, tabiatdan foydalanish bo'yicha statistik ma'lumotlar [8].

Xulosa qilib aytganda, davlat va jamiyatni rivojlantirishning strategik vazifalarini hal etish geografik axborot tizimlarini (GAT) yer tuzish, tabiatdan foydalanish, hududiy rejalashtirish, yerdan foydalanishni boshqarish va hokazolarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotiga to'liq joriy etishga asoslanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кошкарев А.В. Геоинформатика в инфраструктурном обеспечении цифровой экономики. 2019. № 1. – С. 119–126.
2. The Experience in Information Support for Sustainable Development of Territories with Regional Specifics /O.Yu. Chereshnya, P.De Maeyer, V. Gribok. //Science. Innovations. Technologies. 2021. №4. – P. 63–76.
3. Лурье И.К., Прасолова А.И. Университетское картографическое образование в эпоху перемен. //Геодезия и картография. 2017. № Спецвыпуск. – С. 4–15.
4. Пошивайло Я. Г., Колесников А.А. Разработка концепции подготовки кадров для геопространственной индустрии в рамках сквозных технологий цифровой экономики. //ИнтерКарто. ИнтерГИС. Геоинформационное обеспечение устойчивого развития территорий: материалы Междунар. конф. – М.: Географический факультет МГУ, 2021. Т. 27, ч. 1. – С. 29-43.
5. Щитова Н.А. Формирование компетенций в области устойчивого развития у студентов по направлению «География» / Н.А. Щитова, В.С. Белозёров, Ю.Ф. Зольникова. //ИнтерКарто. ИнтерГИС. Геоинформационное обеспечение устойчивого развития территорий: материалы Междунар. конф. – М.: Изд-во Москов. ун-та, 2020. Т. 26, ч. 1. – С. 22–29.
6. Кошкарев А. В. Образовательные геопорталы: данные и сервисы. //Геодезия и картография. 2017. № Спецвыпуск. – С. 33-40.
7. Владыкина А.В. Эколого-экономическое интерактивное картографирование и его реализация. -Новосибирск, 2017, 148 с.
8. Мусаев И., Сафаров Э. Геоахборот тизим ва технологиялар. //Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 2012. – 160 б.

## KONSTITUTSIYADA QONUNCHILIK TASHABBUSI YANGI MAZMUN BILAN BOYITILDI

*Nurullayeva Shahnoza Nurillo qizi*  
*Farg'ona viloyati yuridik texnikumi*  
*“Davlat-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi*  
*1-bosqich 30-23-guruh o‘quvchisi*  
*Telefon: +998904083028*  
*shahnozanurullayeva046@gmail.com*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada qonunchilik tashabbusi va qonunchilik taklifi tushunchalari, bu borada yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar hamda ularning ahamiyati kabi masalalar haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qonunchilik tashabbusi, qonunchilik taklifi, qonun loyihalari, Qonunchilik palatasi, qonunning g‘oyasi yoki konsepsiyasi.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются такие вопросы, как понятия законодательная инициатива и законодательное предложение, изменения, внесенные в Конституцию, принятые в новой редакции, а также их значение.

**Ключевые понятия:** законодательная инициатива, законодательное предложение, законопроекты, Законодательное собрание, идея или концепция закона.

**Abstract:** this article discusses the concepts of legislative initiative and legislative proposal, the changes made to the Constitution adopted in the new revision in this regard, and issues such as their importance.

**Key concepts:** legislative initiative, legislative proposal, bills, legislature, idea or concept of law.

Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida qonunchilik tashabbusi instituti muhim institutlardan biri hisoblanadi. Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonida ushbu institutning ahamiyati juda kattadir. Ayniqsa, o‘tgan yili O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi qabul qilinishi ham Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi istiqbollari uchun muhim qadam bo‘ldi deb aytish mumkin.

Qonunchilik tashabbusi tushunchasini turli manbalardan bilamizki, qonunchilik tashabbusi– bu muayyan davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonun chiqarish masalasini qo‘yish va uning loyahasini ko‘rib chiqish uchun qonun chiqaruvchi organga taqdim etish huquqidir.<sup>1</sup> Yana bir manbada Qonunchilik tashabbusi - qonun

<sup>1</sup> Davlat va huquq nazariyasi / Mas’ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2019. 133-bet.



loyihalarini qonun chiqaruvchi organlar muhokamasiga taqdim etish huquqi<sup>2</sup> va hakoza. Umuman ushbu manbalardan bir xil mazmun kelib chiqadi, ya'ni qonunchilik tashabbusiga vakolatli organlarning qonun loyihalarini qonun chiqaruvchi organlarga taqdim etish huquqidir.

Qonun chiqarish tashabbusi esa – bu qonun chiqarish jarayonining dastlabki bosqichi bo'lib, mazkur jarayon qizg'in sa'y-harakatlarga asoslanadi, ular natijasida qonun chiqaruvchi organga qonunchilik yuzasidan tegishli takliflar kiritiladi, qonun chiqaruvchi esa mazkur takliflar asosida yangi qonun chiqarish, amaldagisini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishga qabul qiladi.

Albatta qonunchilik tashabbusiga vakolatli bo'lgan subyektlar konstitutsiyada ko'rsatib qo'yiladi. Aynan mana shu masalalar yangi tahrirdagi Konstitutsiya<sup>3</sup> ning 98-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyahasini qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.

Yurtboshimizning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda ilgari surgan qonunchilik tashabbusi huquqi institutini isloh qilish bo'yicha taklifidan kelib chiqqan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasida “qonunchilik takliflarini kiritish” instituti joriy etildi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishga haqliligi belgilandi.

Yuqoridagi fikrlardan anglash mumkinki, qonunchilik taklifi instituti – bu qonunchilik tashabbusining bir turi bo'lib, keyinchalik Qonunchilik palatasida qonun

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonunchilik\\_tashabbusi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonunchilik_tashabbusi)

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.

loyihasiga aylanadigan bo'lajak qonunning asosiy g'oyasi yoki konsepsiyasini vakolatli subyektlar tomonidan taklif etish huquqidir.<sup>4</sup>

Amaldagi konstitutsiyamizning 98-moddasida qonun loyihasini tashabbus qila oladigan subyektlar ro'yxati keltiriladi. Mazkur subyektlarni shartli ravishga ikki guruhga ajratib tushunishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni masalan, birinchi guruhga to'la qonun loyihasini tashabbus qila oladigan subyektlarni kiritish mumkin. Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, shuningdek, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir. Bulardan Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror hamma soha bo'yicha emas, o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonun loyihasini qonunchilik palatasiga kiritishi mumkin.

Ikkinchi guruhga O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Oliy Majlisining Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish vakolati belgilandi.

Albatta o'z-o'zidan qonunchilik tashabbusi huquqi va qonunchilik takliflarini kiritish huquqi o'rtasida o'ziga xos farqlanishlar bor. Jumladan, qonunchilik tashabbusi huquqida aniq qonun loyihasi – ya'ni barcha tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan hamda tuzilishga doir talablarga mos bo'lgan kelgusida qabul qilinadigan qonunning matni kiritiladi.

Qonunchilik tashabbusi huquqida vakolatli organlar va shaxslar tomonidan qonun loyihasini qabul qilish to'g'risida taklifni parlamentga taqdim etiladi va belgilangan tartibda ko'rib chiqib tegishli qaror qabul qiladi. Bunda Qonunchilik palatasiga Konstitutsiyada ko'rsatilgan subyektlar tomonidan qonun loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlar ham taqdim etiladi.

Qonunchilik taklifi esa qabul qilinadigan qonunning barcha tartib-taomillari emas, balki faqat g'oyasi ifodalanadigan konsepsiyalari bo'lib, bunda qonun loyihasi emas, balki qonunning asosiy konsepsiyasi taklif etiladi.

Yuqorida so'z yuritilgan o'zgarishlardan ko'rinib turibdiki, qonunchilik takliflarini kiritish institutini joriy qilish hamda qonunchilik tashabbusi subyektlari doirasini kengaytirish orqali normativ-huquqiy hujjatlar tizimida qonunlarning ulushi ortishiga, qonun osti hujjatlarini kamaytirishga, qonun loyihalarini o'z vaqtida ishlab chiqish orqali jamiyatdagi va qonunchilikdagi muammolarni o'z vaqtida hal etishga, xalqni qonun ijodkorligida bevosita ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

---

<sup>4</sup> Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil. 138-b.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrir M.Axmedshayeva. Darslik. – Toshkent: TDYUU, 2019. 133-bet.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonunchilik\\_tashabbusi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonunchilik_tashabbusi)
4. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2023 yil. 138-b.



## KREATIVLIK PEDAGOGIK FAOLIYAT UCHUN JUDA MUHIM MASALADIR

**Rahmonova Zulfiya Bahromovna**  
Fargʻona viloyati yuridik texnikumi  
“Umumtaʼlim fanlari” kafedrası  
yuristlar uchun ingliz tili fani oʻqituvchisi  
Telefon: +998995111402  
Zrahmonova0189@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada taʼlimga berilayotgan eʼtibor pedagoglar uchun oʻziga xos masʼuliyat va izlanuvchanlik, oʻz ustida barqaror ishlashni talab qilishi, pedagogikani innovatsion faoliyat hamda kreativlik tushunchalarisiz tasavvur qilib boʻlmasligi, shu sababli ham pedagogda kreativlikni rivojlantirish lozimligi xusussmda fikrlar yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** pedagog, izlanuvchanlik, innovatsion faoliyat, kreativlik, intellektual va ijodiy kompetentlik, kreativ mahsulot.

**Аннотация:** в данной статье особое внимание уделяется воспитанию, которое требует от педагогов особой ответственности и любознательности, стабильной работы над собой, педагогика немыслима без концепций инновационной деятельности и креативности, поэтому необходимо развивать в педагоге креативность.

**Ключевые понятия:** педагог, любознательность, инновационная деятельность, креативность, интеллектуальная и творческая компетентность, креативный продукт.

**Abstract:** in this article, the emphasis on education is on specific responsibility and research for educators, the need to work steadily on themselves, the inability to imagine pedagogy without the concepts of innovative activity and creativity, and therefore the development of creativity in the educator.

**Key concepts:** educator, traceability, innovative activity, creativity, intellectual and creative competence, creative product.

Bugungi kunda taʼlimga berilayotgan eʼtibor pedagoglar uchun oʻziga xos masʼuliyat va izlanuvchanlik, oʻz ustida barqaror ishlashni talab qiladi.

Pedagogika qadim zamonlardan ishlatilib kelingan soʻzlardan biri boʻlib, yunonchadan “bola yetaklovchi” degan maʼnoni bildiradi. Pedagogikani shaxs

tarbiyasini rivojlantirishda o'zni beqiyos. Pedagogika – ta'lim, tarbiya berishning nazariy ham amaliy ko'inishidagi fandır.1

Ma'lumki, pedagogik faoliyatning mazmunini o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qiladi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy g'oyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o'qitish aks etadi.2

Pedagogika sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassislardan biri N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi, ya'ni konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ. Konstruktivlikni ham o'z navbatida, uch turga: konstruktiv faoliyat mazmunli, ya'ni o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish, ikkinchidan, konstruktiv operativ, ya'ni o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish; uchunchidan, konstruktiv-moddiy, ya'ni pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini loyihalash jihatlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotchilik faoliyati – o'quvchilarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. Kommunikativ faoliyat – pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yishdan iborat degan fikrni ilgari suradi.

Bugungi kunda pedagogikani innovatsion faoliyat hamda kreativlik tushunchalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bunga sabab axborot texnologiyalari rivojlangan postindustrial jamiyatlarda bilimning o'zigina yemas, kreativlik, innovatsiyalar, umuman olganda yangicha fikrlash tarzi ham juda muhim yekanligi kelib chiqmoqda. Aynan "ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni faol tatbiq etish orqali o'qituvchining amaliy tayyorgarligi hamda kreativ kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi".3

Shuning uchun ham bo'lajak kadrlarda o'zining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularda intellektual va ijodiy kompetentlikni rivojlantirish ham dolzarflik kasb yetadi. Bu orqali ularning kasbiy faoliyatida kreativlik, zakovatlilik, bilimdonlik va teran tafakkurni namoyon qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Pedagogikada "Innovatsion faoliyat" pedagogik faoliyatning bir turi, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik yangiliklarni rejalashtirish va amalga oshirish

1 M.Isoqova Pedagogik faoliyat va uning turlari Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 534-bet.

2 <https://muhaz.org/maruza-2-otm-pedagogika-tarixi-va-pedagogik-mahorat.html?page=89>.

3 Matvapayev A. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – Ch.: 2023.

uchun ijodiy jarayon sifatida, o'qituvchining ijodiy salohiyatini aks ettiruvchi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida qaraladi.

Pedagog innovatsiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat<sup>4</sup>:

- pedagogik jarayon va uning komponentlarida progressiv (nuqsonsiz) o'zgarishlar: maqsadlarning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar; yangi o'quv vositalari;
- ota-onalarning yangi g'oyalari; o'qitish, rivojlantirish, o'qitishning yangi usullari va uslublari.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy tajriba bilim, ko'nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Ammo kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, balki mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni ham, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lishni ham, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'zlashtirilishini ham talab qiladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.<sup>5</sup>

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy globallashtirish sharoitida pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etiladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lish uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi.

Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish yo'li bilan o'zining mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga muvofiq bo'lmagan dalillar bilan to'qnash keladi. Natijada o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yana-da o'stiradi hamda takomillashib borishiga turtki beradi.

Pedagogik faoliyatda kreativlik bilan bog'liq masalalar yuzasidan ilmiy moqalalar yozgan olimlardan A.I.Avazboyev hamda J.E.Pardaboyevlar o'quvchilarda kreativlik

4 Drujinin V.I. Koordinatsiya innovatsionnoy deyatelnosti v oblastnom obrazovatel'nom prostranstve // Metodist. – 2002. – № 4. – S. 4–10.

5 Hasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2009. - 236 bet.



sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari xususida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi.<sup>6</sup> Birinchi yo'l – kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, talabalar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi.

Ikkinchi yo'l – amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadilar.

Uchinchi yo'l – kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Mazkur yo'lda talabalarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi.

To'rtinchi yo'l - kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog o'quvchilarga, masalan o'z mutaxassisligimizdan kelib chiqib, yuristlar uchun ingliz tili modulidan Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayonlari tashkil etilgan bo'lib, bunda o'quvchi va talabalarning mustaqil izlanishlari uchun ma'ruza hamda seminarga nisbatan ham ko'p soat ajratilgan. Bu o'z navbatda ularning mustaqil ishlashlari, masala va muammolarga mustaqil fikr bilan, mavzularga kreativ yondoshishlari quvonarli holatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Isoqova Pedagogik faoliyat va uning turlari Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 534-bet.
2. <https://muhaz.org/maruza-2-otm-pedagogika-tarixi-va-pedagogik-mahorat.html?page=89>.
3. Matvapayev A. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mehanizmlari: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – Ch.: 2023.
4. Drujinin V.I. Koordinatsiya innovatsionnoy deyatelnosti v oblastnom obrazovatel'nom prostranstve // Metodist. – 2002. – № 4. – S. 4–10.
5. Hasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2009. - 236 bet.
6. Avazboyev A.I., Pardaboyev J.E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2018, 8. 22-bet.

<sup>6</sup> Avazboyev A.I., Pardaboyev J.E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2018, 8. 22-bet.

## О‘QITUVCHI QANDAY BO‘LISHI LOZIM

*Rahmonova Zulfiya Bahromovna*  
*Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi*  
*“Umumta’lim fanlari” kafedrası*  
*yuristlar uchun ingliz tili fani o‘qituvchisi*  
*Telefon: +998995111402*  
*Zrahmonova0189@gmail.com*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida har tomonlama yetuk, ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari hamda yutuqlaridan hamisha boxabar bo‘ladigan, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega, o‘z ustida muntazam izlanadigan mutaxassislarni, ayniqsa, yosh avlodga ta’lim-tarbiya va bilim beradigan pedagoglarni tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik mahorat, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika, kreativlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik, bilimdonlik, zukkolik.

**Аннотация:** в данной статье говорится о том, что в современном глобализационном процессе приобретает актуальное значение подготовка всесторонне зрелых, обладающих глубокими знаниями в своей области, систематически востребованных специалистов, особенно педагогов, дающих образование и знания подрастающему поколению.

**Ключевые понятия:** педагогическое мастерство, коммуникативные способности, педагогическая техника, креативность, инициативность и организованность, эрудиция, смекалка.

**Abstract:** this article talks about the urgent importance of training professionals, especially educators who provide education and knowledge to the younger generation, with in-depth knowledge of their specialty, who will always be interested in the innovations and achievements of Science, Technology and technology in every way mature in the process of globalization today.

**Key concepts:** pedagogical skill, competence of communicativeness, pedagogical technique, creativeness, initiative and organization, erudition, ingenuity.

Keyingi yillarda yer yuzida inson omili, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanish keng tadbiq etilayotgan bir vaqtda, pedagog kadrlarni tayyorlashdagi muammolar inson kapitali sifatining o‘shigiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Pedagogika ta’lim muassasalari talabalari, nafaqat fuqarolarni bilimli qilib tayyorlash va mamlakat inson kapitalini shakllantirish va ayni chog‘da mavjud

o'qituvchilik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va kelgusi avlodga yetkazishda ham muhim jarayon hisoblanadi.

Prezidentimizning “O‘zbekistonda bugundan boshlab, eng hurmatli, eng e‘zozli inson – bu muallim!” yoki “O‘qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman!”, deb ta‘kidlab aytganlari o‘qituvchilik kasbining qanchalik ulug‘ kasb ekanligining yorqin dalilidir.

Mamlakatimizda salohiyatli pedagogik ta‘lim tizimi avvaldan shakllangan bo‘lib, o‘zbek pedagogik ta‘lim tizimining ijobiy xususiyatlaridan biri sifatida O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan hamda mehnat bozorining barqaror bo‘lmagan sharoitida pedagogika ta‘lim muassasasi tamomlovchisi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritmasa ham, shu diplom bilan boshqa sohada o‘z faoliyatini davom ettira olish imkoniyatining mavjudligini aytib o‘tish mumkin.

Dunyoning qator mamlakatlarida, jumladan iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmoqda. Respublikamizda ham kadrlar bo‘shlig‘ini to‘ldirish, shu jumladan, umumta‘lim maktablarida pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish obyektiv zarurat.1

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi2 PQ-4623-son Qarorida pedagogik ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan.

Bugungi kunda esa mamlakatimizda 2020-yil 24-sentabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va unda belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlarni amaliyotda yangicha uslublar asosida qo‘llash Respublika maktabgacha ta‘lim, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim hamda oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma‘naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.3

Tabiiyki, barcha taraqqiy etgan davlatlarda bo‘lgani kabi bizning mamlakatimizda ham o‘qituvchi (pedagog) kadrlarning ma‘naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda.

---

1 A.Ibragimov. Xorij tajribalari asosida o‘zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 1129-6et.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi2 PQ-4623-son Qarori.

3 Sh. Nuraliyev Pedagog shaxsi va unga qo‘yiladigan talablar. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 319-320 bet.



Bugungi kun o'qituvchisi, ya'ni pedagog xodimi zamonaviy o'qituvchi sifatida ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari hamda yutuqlaridan hamisha boxabar bo'lishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega, o'z ustida muntazam izlanishi, pedagogik va psixologik fanlarning asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayonida esa eng maqbul shakl, uslub va vositalardan samarali foydalanish imkoniyatiga hamda kreativlik, tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, yuksak darajadagi pedagogik mahorat, jumladan, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika, ya'ni nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika kabi jarayon qoidalarini mukammal o'zlashtirib olgan bo'lishi, pedagogik notiqlik madaniyatiga amal qilishi, ya'ni nutqdagi jozibadorlik, aniqlik, to'g'rilik, ravonlik aks etgan bo'lishi, shaxsiy hayotda ma'naviy go'zal, samimiy va albatta atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi zarur.

Ma'lumki, pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Shu bois, pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi lozim.

Pedagogik jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish, o'z navbatida, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'lganligi sababli ham murakkabdir va buni his qilgan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda tashkillaydilar.

Pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini "o'sib" uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va [vazifalarga ijodiy yondoshishi](#);
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.<sup>4</sup>

Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz-o'qituvchi bo'la olmaydi.

nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas'uliyatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:<sup>5</sup>

- O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

4 <https://muhoz.org/maruzha-2-otm-pedagogika-tarixi-va-pedagogik-mahorat.html?page=89>

5 D.Rahmonova. Zamonaviy o'qituvchi va uning obrazi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385. 529-530-bet.

- O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

- O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

- Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

- O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.

Pedagogika yo'nalishida tadqiqot ishlarini olib borgan ko'plab olimlarning fikrlarini o'rganilganda ular tomonidan bildirilgan, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar borasida, albatta, bir xilliklar mavjud va ular bir birini to'ldirib boradi.

Xulosa o'rnida ingliz tili fani o'qituvchisi sifatida aytishim mumkinki, zamonaviy pedagog o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahoratga ega bo'lishi bilan birgalikda chet tillarini ham bilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Ibragimov. Xorij tajribalari asosida O'zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 1129-6er.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1 PQ-4623-son Qarori.

3. Sh. Nuraliyev Pedagog shaxsi va unga qo'yiladigan talablar. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601 319-320 bet.

4. <https://muhaz.org/maruza-2-otm-pedagogika-tarixi-va-pedagogik-mahorat.html?page=89>

5. D.Rahmonova. Zamonaviy o'qituvchi va uning obrazi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385. 529-530-bet.

## AVTOMOBIL FARALARI TURLARI VA ULARGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH

*Xasanboy Mamasiddiqov*

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb-hunar maktabi I.CH.T.U.*

*+998937302384 hasanboymamasiddiqov03@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ko'pgina hollarda, faralarning nosozliklarini bartaraf etish uchun ularni almastirmasdan ta'mirlash mumkin. Masalan, abajurni qayta tiklash abraziv materiallar va maxsus pasta yordamida tozalash oksidlangan qatlamdan xalos bo'lishdan iborat. Chiroqni eskirish darajasiga qarab, himoya plyonkasining sayoz qatlamini olib tashlash orqali yumshoqroq yoki kuchliroq sayqallanishi mumkin.

**Kalit so'zlar;** Avtomobil, faralar, servis, avtoxizmat, Lazerli faralar, Led avtoulavli faralar, ksenon faralar va halojen faralar.

**Annotation:** In most cases, headlights can be repaired without replacing them. For example, the restoration of a lampshade consists in cleaning with abrasive materials and a special paste to get rid of the oxidized layer. Depending on the level of wear, the lamp can be polished more gently or more strongly by removing a shallow layer of protective film.

**Keywords;** Car, headlights, service, auto service, Laser headlights, Led car headlights, xenon headlights and halogen headlights.

Kechasi yoki og'ir ob-havo sharoitida faralarsiz haydash albatta juda qiyin. Avtomobilingizning faralarini a'lo holatda saqlash ushbu sharoitda yo'lda muammolardan qochishingizga yordam beradi.

Avtomobilingizning faralarini yaxshi holatda saqlash yo'l harakati qoidalarining qonuniy talabi hisoblanadi.

Biroq, oddiy muntazam tekshiruvlarni amalga oshirish faralaringizni ish tartibida saqlashga yordam beradi. Avtomobil faralarini saqlash bo'yicha oddiy maslahatlar:

- Farlar korpuslari doimo toza ekanligini tekshiring;
- Tormoz chiroqlari va ko'rsatkichlarini nazoratdan o'tkazing.
- Siz yonib ketgan farani sezmasligingiz mumkin. Siz odatda yorug'likning pasayishini sezasiz yoki boshqa yo'l foydalanuvchilarining sizga chiroqlarini miltillashini ko'rasiz;
- Agar indikator chirog'i kerak bo'lganidan tezroq miltillasa, u to'g'ri ishlamayotganligini ko'rsatishi mumkin;
- Lampochkalarini almastirsangiz, buni har doim juftlik bilan bajaring.
- Agar shubhangiz bo'lsa, maslahat uchun eng yaqin Avtoservisga murojaat qilish kerak



- Farlar o'nlab yillar davomida takomillashtirildi.

Yigirmanchi asrning oxiriga qadar qidiruv nuri turidagi dumaloq chiroqlar avtoulavlarga o'rnatildi. Biroq, tananing ergonomikasi va aerodinamikasi o'zgarganda, yangi echimlar paydo bo'ldi: dumaloq faralar silliq, soddalashtirilgan tana chiziqlarini yaratishga imkon bermadi. Shuning uchun dizaynerlar va konstruktorlar yorug'lik sifatleri va xususiyatlari jihatidan kam bo'lmagan yangi, yanada jozibali shakllarni joriy qila boshladilar.

Hozirda kunda avtomobil faralarining 4 turi mavjud:

Lazerli faralar (omtabop emas) --- LED avtoulovli faralar (markani ifodalaydi: reset) --- Ksenon faralar (brend nomidan: osram) --- Halogen (markani ifodalaydi: philips, osram). narxlar sabab bo'lganligi uchun, avtomobil ishlab chiqaruvchilari odatda standart sifatida halogen lampalardan foydalanadilar. oldingi ksenonli faralar halogen lampalar uchun alternativ yorug'lik manbalari sifatida ishlatilgan. led texnologiyasining etukligi va rivojlanishi bilan asta-sekin halogen lampalar va ksenonli faralarni almashtirish paydo bo'ldi.

Avtomobilida turli xil yoritish moslamalari mavjud:

- **Yon chiroqlar** : ular yonib turgan kichik yashil chiroq bilan ifodalanadi. Birinchidan, ular sizga ko'rishdan ko'ra yaxshiroq ko'rishga imkon beradi.

- **Chiroqlar** : bu biz tez-tez ishlatadigan faralar. Ular boshqa haydovchilarni ko'zni qamashtirmasdan 30 metrgacha yo'lni yoritishi mumkin, chunki bu faralarning yorug'ligi yerga yo'naltirilgan.

- **Qizil chiroqlar** : Ular faqat avtomobilning old qismida joylashgan. Moviy fara belgisi bilan ko'rsatilgan bular avtomobilingizdagi eng kuchli faralardir. Shunday qilib, uzoq nurli faralar avtomobil oldida taxminan 100 metr yoritib turishi mumkin, lekin shuning uchun olddagi transport vositalarini ko'zni qamashtirishi mumkin.

- **tuman chiroqlari oldin** : ular yomon ko'rish sharoitida yaxshiroq yoritishni ta'minlaydi. Ammo ularning keng yoritilishi boshqa avtoulavchilarni hayratda qoldirishi mumkin va bu faralar faqat qor, kuchli yomg'ir yoki tumanda qo'llaniladi.

- **Orqa tuman chiroqlari** : barcha jihozlar u bilan jihozlangan emas. Ular ayniqsa kuchli, lekin faqat qor va kuchli tuman uchun mo'ljallangan. Ular yomg'ir, hatto kuchli yomg'irda ham ishlatilmaydi. Mashinada odatda bitta orqa orqa chiro

ta'sirini o'tkazmasligini ta'minlashni talab etadi. Maktab psixologlaridan eng avvalo bo'sh o'zlashtirish psixodiagnostikasini o'tkazish talab etiladi. Bunda avvalo bo'sh o'zlashtirishni kelib chiqish sabablari aniqlab olinadi. Bunday sabablarga: -Bolaning perinatal rivojlanishidagi travmalar (mikrosefaliya, gidrosefaliya, makrosefaliya, turli xil sindromlar, vitaminlar yetishmasligi, cherepnoy qon bosimi, turli xil anomalialar); -Bolaning tug'ilish jarayonidagi travmalar (gipaksiya, asfeksiya, bosh miya qisilishi); -Bolaning tarbiyalanish jarayonidagi travmalar (qo'rqitish, uyaltirish, jazolash, kamsitish, past baho berish, bolaga e'tiborsizlik); -Genetik sabablar -Bolaning temperamentidan kelib chiqqan holda (melanxolik temperamentidagi bolalarda tormozlanish reaksiyasining qo'zg'alish reaksiyasidan ustunligi natijasida). Bunday o'quvchilar bilan ishlashda maktab psixologidan o'quvchining ehtiyojlarini anglab yetishiga ko'maklashish va shu asosda unga to'g'ri motivatsiyalar berib borish talab etiladi hamda bolada o'z-o'ziga ishonch, qo'rquvni yengishiga o'rgatib boriladi. Bunday ishlar bir yoki ikki marta ishlash bilan bartaraf etilib qolmasdan balki bir qancha uzoqroq muddatni talab etadi. Maktab psixologi bo'sh o'zlashtirishning etiologiyasidan kelib chiqqan holda har bir bolaga individual ota ona, o'qituvchi va bola uchun etalon hisoblangan guruh bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda faoliyat olib borishi, bunday faoliyatni olib boorish jarayonida ham bolani o'rtoqlari oldida uyaliq qolishi mumkin bo'lgan holatlardan ehtiyot bo'lishi talab etiladi. Aks holda bolada agressivlikni shakllanishi holatlari ham yuzaga kelib qolishi, bunday holat esa psixologga bolaning ishonchi pasayib ketishiga olib kelib qolishi mumkin. Pedagoglardan esa dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanib o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib boorish va uni eshitishi, bolaga sen yaxshi o'qimaysan degan salbiy munosabat emas, aksincha seni fikring biz uchun muhim degan hissiyotni shakllantirish va bola shaxsini hamisha hurmat qilayotganligini unga anglatib borish talab etiladi. Ayrim holatlarda o'quvchining past o'zlashtirishiga o'qituvchilarning bolaga uning individual holatidan kelib chiqmasdan yondoshishi va bolada o'ziga ishonch va qo'rquv shakllanib qolishiga sabab bo'lish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatlarda maktab ma'muriyatidan bolaning o'qituvchisini almashtirish ham yaxshi samara beradi. Maktab psixologi esa o'qituvchiga, ota onaga hamda maktab ma'muriyatiga vaziyatdan kelib chiqqan holda tavsiyalar ishlab chiqishi lozim. Taniqli psixolog Deyl Karnegi "Dunyoda odamlarni nimadir qilishiga undaydigan bir usul bor, bu usul odamni nimadir qilishga majburlash demakdir"-deydi. Mashhur Amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyuning fikriga ko'ra "Inson tabiatiga xos bo'lgan eng asosiy intilish – bu ahamiyatli, qadrli bo'lish istagidir" – deydi. Kichik maktab yoshida faoliyatni, xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatga ega. O'qituvchi va ota onalar bolaga to'g'ri munosabat bildirsa ham bunday muammoni yechimi osonlashadi. Bo'sh o'zlashtirish faqatgina kichik maktab yoshi davrida emas balki o'smirlik davrida asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Sababi bunday yoshda bola o'z ichki



his tuyg'ularini anglyadai va o'rtoqlari bilan o'zini solishtiradi. Hattoki bu yoshda bolaning kiyadigan kiyimi ham bolaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bolaga bu davrda tengdoshlaridan biroz oddiyroq kiyim kiyishi, oddiy qo'l telefonidan foydalanib yurishi, o'rtoqlarining maktab oshxonasidan qanday ovqatlanishi ham o'smir yoshdagi bolada o'ziga nisbatan bahoning pasayishi va agressiyaning kuchayishiga hamda bolada norozi kayfiyat shakllanishiga olib keladi. Bu ham bolaning maktab darsliklarini past o'zlashtirishiga va negativ kayfiyatni shakllanishiga sabab bo'ladi. Bola o'z qobig'iga o'ralgan holda fikr yurita boshlaydi. Baribir o'qiganimni foydasi yo'q, ota onam menga be'etibor degan his tuyg'u bilan yuradi. Bu davrda esa sinf rahbari, maktab psixologi, maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosarlari to'g'ri targ'ibot va tashfiqot ishlarini olib borishi hamda maktabda bunday bolalar bilan hamkorlikni to'g'ri tashkil etilishini talab etadi. Maktab psixologi o'quvchilar bilan individual suhbat jarayonida psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni olib borishda bolani eshita olishi va uni muammolarini vaqtincha ekanligi va bunday holatda unga nimalar qilishi lozimligini o'ziga reja tuzdirgan holda bartaraf etishga ko'maklashsa, bolada taym menejmentdan qanday foydalanish ko'nikmalari shakllantirib borsa, bolaning qiziqish va qobiliyatlarini to'g'ri baholab unga kasb tanlashga yordam bersa bu davrda muammoni bola bir muncha yengilroq yengib o'tadi. O'smir yoshda qizlarning o'rtasida past o'zlashtirishning uchrashi yuqoridagi sabablar bilan birgalikda o'zi yoqtirgan kishisining unga e'tibor bermasligi oqibatida va o'zida kechayotgan fiziologik o'zgarishlardan uyalish, o'zining his-tuyg'ularini anglab yetish jarayonida darslarga emas, aksincha o'zining fiziologiyasiga diqqatning haddan ziyot ko'p qaratilishi, bunday o'zgarishlarni qabul qilishga qiynalishi oqibatida kelib chiqadi. Bunday holatlarda psixolog va maktab hamshirasi bolaning onasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda qiz bolaga to'g'ri tushuntirish ishlarini olib borishi talab etiladi. Ma'lum muddatdan so'ng bunday holatdan chiqib ketiladi. Genetik sabablardan kelib chiqqan holatdagi past o'zlashtirish holatlari ham ko'p uchrab turadi. Bunday holatlarni ham hozirda yangi pedagogik texnologiyalar va psixokorreksion mashg'ulotlar yordamida mashg'ulotlar tashkil etilib yengillashtirilmoqda. Idrok va diqqat patologiyasi holatlarida esa maktab psixologidan to'g'ri psixodiagnostika qilish va maxsus soha vakillariga yo'naltirish talab etiladi. Bo'sh o'zlashtirishning kelib chiqmasligiga maktabdagi barcha pedagogik jamoa mas'ulligini unutmasligimiz lozim. Maktablarda o'quvchilar o'rtasida bo'sh o'zlashtirishni oldini olish va psixokorreksiya qilish ham yurt ravnaqiga, ham bir inson taqdiriga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bir insonning, bir oilaning tinch va farovon yashashiga o'qituvchilar va psixologlar yordam bergan bo'ladi. Farzandlar yurtimiz kelajagi. Yurt kelajagi esa ustoz va murabbiylar qo'lida. Temirchi bir parcha temirdan turli ishlovlar berib buyum yasasa, ustoz-murabbiylar o'zlari ta'lim berayotgan o'quvchilardan kelajak kasb egalarini shakllantiradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лебединский В.В. Нарушения психического развития у детей. М., 2004г.
2. Дети с ЗПР. Под ред. Власовой Т.А. М., 2004г
3. Е. G'oziyev. Psixologiya. Darslik. «O'qituvchi» nashriyotmatbaa ijodiy uyi. – Toshkent. – 2008.
4. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent. «O'qituvchi» – 1882.
5. <http://www.gogle.com>

## REPRODUKTIV XULQ PSIXOLOGIYASIDA FARZANDGA QADIRYATLI MUNOSABATNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

*Abdullayeva Nasiba*

*Urganch Davlat Universiteti,*

*Psixologiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada Reproductive xulq nima ekanligi hamda farzandga qadiryat tushunchasini anglatish va qadiryatli munosabatlarning psixologik mexanizmlari to'g'risida so'z boradi. Oilada farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilib, farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** Reproductive xulq, psixologik mexanizmlar, qadiryat, farzand tarbiyasi. Ota-onaning muomalasi, qo'pol-dag'al so'zlar, oiladagi nosog'lom muhit, "ma'naviy kasal", odobli bo'lib ulg'ayish, mahalla-kuy.

**Аннотация:** В статье говорится о том, что такое репродуктивное поведение, а также о понятии ценности для ребенка и психологических механизмах ценностных отношений. Если ребенок вырастет, слыша резкие слова от родителей и его бьют, это отрицательно скажется на его характере. А это, в свою очередь, делает «духовно больными» людей из детей, воспитанных в нездоровой обстановке в семье.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: Репродуктивное поведение, психологические механизмы, достоинство, воспитание детей. Обращение со стороны родителей, грубые слова, нездоровая обстановка в семье, «духовно больные», воспитание вежливых айиш, соседская мелодия.

**Annotation:** The article talks about what reproductive behavior is and the concept of value to the child and the psychological mechanisms of value relations. If a child grows up hearing harsh words from his parents and being beaten, this will have a negative effect on his nature. And this, in turn, makes "spiritually sick" people from children raised in an unhealthy environment in the family.

**Keywords:** Key words: Reproductive behavior, psychological mechanisms, dignity, child upbringing. Parental treatment, rude words, unhealthy environment in the family, "spiritually sick", grow up polite 'ayish, neighborhood tune.

Oilada farzand tug'ilishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo'lgan. Lekin ayrim G'arb davlatlarida, jumladan, Rossiyada oilada bola sonining keskin kamayib ketishi munosabati bilan er-xotinning reproductiv

huquqi, madaniyati va xulqi masalasi ayni davrda o'ta dolzarb masaladir. Rus olimi S.P.Kapitsaning (1999) pessimistik bashoratiga ko'ra, Rossiyada 1995–2025 yillar oralig'ida tug'ilishning kamayishi 2 mln.dan (optimistik bashorat) 32 mln.gacha tushib (pessimistik bashorat) ketadi, bu raqamga 1995 yilgi 147,9 mln. aholi soni asos qilib olingan. SHuning uchun jahon olimlari, Xalqaro aholishunoslik jamg'armalari (jumladan, YUNFPA, YUNISEF) oilada sog'lom bola tug'ilishi siyosati orqali yer yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga alohida e'tibor berib, konkret tadqiqotlar o'tkazmoqda. Bunday asosiy muammo – onaning reproduktiv xulqini boshqarish va muvofiqlashtirish, uning salomatligini muhofaza qilish, sog'lom zurriyod tug'ilishini kafolatlashdir. Reproductiv xulq – bu oilada farzand tug'ilishi bilan bog'liq xulqdir. U oila a'zolarini o'z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog'liq bo'lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi avvalo insondagi o'zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo'lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi. Rossiyalik ayollar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ular xohlagan bola soni (2,8) real bolalar sonidan ancha ortiq. shundan A.Antonov, ayni davrda odamlar o'z reproduktiv vazifalarini ado etmayaptilar, deb xulosa qiladi. Ko'pincha, reproduktiv xulqning motivlari odamning boshqa turdagi faoliyat motivlari ta'sirida so'nib bormoqda, avvalo bu harakat oilada sodir bo'lsa-da, u ayol kishining shaxsiy ishiday tasavvur etiladi va ayolning bola tug'ib berish orqali o'zini namoyon etishi, erining munosabatlarini keskin o'zgartirish, unga ta'sir (tazyiq) ko'rsatish, ustidan hukmron bo'lish, kimnidir sevishtirish va unga g'amxo'rlik qilish ehtiyojini qondirishga borib taqaladi. (ingl. Reproductive behavior)–nikohda yoki nikohdan tashqarida farzandni tug'ish yoki tug'ishdan voz kechishga qaratilgan harakatlar va munosabatlar tizimi. Reproductiv hulq-atvorning uch asosiy turlari bor – ko'p farzandli (5 yoki undan ko'p farzandlarga ehtiyoj), o'rta (3-4 farzandlarga ehtiyoj) va kam farzandli (1-2 farzandlarga ehtiyoj). Reproductiv hulq-atvoriga o'tgan yillardagi va hozirdagi hayot sharoitlari ta'sir ko'rsatadi. Joriy davrdagi holat reproduktiv sikldagi voqealarga ta'sir ko'rsatadi va bolalar o'limi orqali tug'ilish sonining oilada mavjud bo'lgan farzandlar soniga muvofiqligi darajasini belgilaydi. O'tgan yillardagi hayot sharoiti farzandlarga bo'lgan shaxsiy ehtiyoj darajasini belgilaydi va bu odatda inson hayoti davomida o'zgarishsiz qoladi. Farzandlarga bo'lgan ehtiyoj reproduktiv me'yorlarni o'zlashtirish natijasi bo'lib, bu mohiyatan ajdodlardan meros qilib olingan reproduktiv tajribadan kelib chiqadi. Reproductiv me'yorlar reproduktiv hulq-atvorni yo'naltirishning tashqi vositasi sifatida muayyan miqdordagi farzandlar tug'ilishi bilan bog'liq va turli ijtimoiy guruhlarda qabul qilingan xatti-harakat tarzi va tamoyillarini ifodalaydi. Ko'p bolali, o'rta va kam bolalilik bir necha avlodlarda uzoq muddat davomida barqaror saqlanib qolishi tufayli, hatto ushbu holatni keltirib chiqargan turmush sharoitlari o'zgarishiga qaramay urf-odat va an'anaga aylanishga



qodir. Shunday qilib, insoniyat rivojlanishining katta qismi davomida umumiy va bolalar o'lim darajasining yuqoriligi ko'p bolalilik me'yorlarini belgilab berdi, reproduktiv hodisalarning tabiiy jarayoniga aralashishga salbiy munosabat shakllanishi buning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Farzandlarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi tufayli kontratsepsiyaning mashhur usullaridan ham foydalanilmagan. Ko'p farzandli me'yorning yo'qolishiga olib keladigan shart-sharoitlar (umumiy va bolalar o'limining pasayishi, oila funksiyalarining keskin o'zgarishi va boshqalar) ta'qiqlash tizimini zaiflashtirib, asta-sekin kontratsepsiya va abortdan foydalanishga olib keladi. Ayollarning oiladagi faoliyatining shaxsiy manfaatlari tomon mustahkamlanishi, farzandlarga bo'lgan ehtiyoj darajasi va ularning qadr-qimmatini pasaytiradi. Kontratseptiv vositalarning nomukammalligini va nikohning birinchi 5 yilida osonlik bilan amalga oshiriladigan 1-2 farzandlarga bo'lgan ehtiyoj, reproduktiv davrning aksariyat muddati davomida homiladorlikni cheklash zaruratini vujudga keltiradi. Bu bilan bog'liq bo'lgan kontratsepsiya vositalarini doimiy ravishda iste'mol qilish zarurati ehtiyojidan ortiq bo'lgan farzandlarga egalik qilish xohishining mavjud emasligi bilan belgilanadi. Reproductiv hulq-atvorning shakli sifatida tug'ilishning bunday "ongli" ravishda cheklanishi va kam bolalilik "yuqori" darajadagi madaniyat va ko'p bolalilik madaniyatning "past"ligi bilan bog'liq. Shunday qilib, reproduktiv hulq-atvorni o'rganish inson irodasining reproduktiv jarayonga, ijtimoiy nazoratning farzandlar tug'ilishiga ta'sirini baholash, ko'p bolalilik va kam bolalilikning vujudga kelishi va saqlanib qolish sabablarini tushuntirish imkonini beradi. Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir debochasi bo'lib, har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan g'oyat muhim tarbiya o'chog'idir. O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, ana shu imkoniyatlar ta'sirida o'g'il va qizlar bilimli, fikrmulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovati bo'lib voyaga etmoqdalar. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga ahloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sirsinoatlari, hususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga doir eng yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola

oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. 18 Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola otaona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Istiqloq tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda. Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda. XXI asrda turli hayot tarzlar va g'oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o'zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo'lishi lozim. Aks holda, o'zlikni yo'qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo'q manqurtga aylantirib qo'yadi. Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish 19 mumkin. Bunda e'tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy

ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy, axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsangiz, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S. Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulova, N. T. PSYCHOSOMATIC FEATURES OF THE REPRODUCTIVE SPHERE. Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 34 (том 1)(март, 2022). Дата выхода в свет: 31.03. 2022., 192.
2. Rasulova, N. T. (2020). Узбек oilalarida reproduktiv faoliyatning tarixiy ilbizlari. Молодой ученый, (8), 343-345.



## PEDAGOGLIK KASBINING ISH FAOLIYATIDAGI JARAYONLARI

*Sadullayeva Shodiya Saparboy qizi*  
*Urganch Davlat Universiteti Pedagogika*  
*fakulteti Pedagogika va psixologiya ta'lim*  
*yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Pedagoglik kasbi uning faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, kasb-hunar ta'limi ustasi umumiy kasbiy-pedagogik faoliyat doirasida turli xil faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu maqolada pedagoglik kasbi va uning kompetensiyalari haqida yozilgan.

**Kalit soʻzlar:** kasbiy ta'lim ustasi, bilim, psixologik, zamonaviy mehnat, pedagogik tizim.

**Аннотация:** Педагогическая профессия определяется особенностями ее деятельности. Как было сказано выше, магистр профессионального образования осуществляет различную деятельность в рамках общей профессионально-педагогической деятельности. В данной статье написано о профессии учителя и его компетенциях.

**Ключевые слова:** магистр профессионального образования, знания, психология, современный труд, педагогическая система.

**Abstract:** Pedagogical profession is determined by the characteristics of its activity. As mentioned above, the master of vocational education carries out various activities within the framework of general professional-pedagogical activities. This article is written about the teaching profession and its competencies.

**Key words:** master of professional education, knowledge, psychological, modern labor, pedagogical system.

Kasb-hunar ta'limi ustasining kasbi pedagogik bo'lib, sub'ekti boshqa shaxs bo'lgan kasblar guruhiga kiradi. O'qituvchi turli mutaxassislar orasida nafaqat burch va mas'uliyat hissi, balki hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar sinfi bilan ham ajralib turadi. Shaxsni shakllantirish, shakllantirish va o'zgartirishni o'z faoliyatining maqsadi sifatida qabul qilgan holda, kasbiy ta'lim ustasi ham uning rivojlanish jarayonini boshqarishga chaqiriladi. Kasbiy ta'lim ustasining kasbiy-pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u go'yo qo'sh mehnat predmetiga ega. Bir tomondan, uning asosiy mazmuni odamlar bilan munosabatlardan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, kasbning bu turi har doim odamdan muayyan kasbiy sohada maxsus bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladi. Kasbiy ta'lim ustasi uchun bu ma'lum bir kasbiy (sanoat) faoliyat turidagi bilim va ko'nikmalardir. Bundan tashqari, kasb-hunar ta'limi ustasi o'quvchilarning faoliyatini, ularning yosh xususiyatlarini, o'zi boshqaradigan

rivojlanish jarayonini yaxshi bilishi va tushunishi kerak. Binobarin, kasb-hunar ta'limi ustasi kasbi ikki tomonlama tayyorgarlikni talab qiladi: insonshunoslik va maxsus (sanoat). Shunday qilib, kasbiy ta'lim ustasi uchun muloqot qilish qobiliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u muayyan ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Ushbu kasbning o'ziga xos xususiyati uning insonparvarlik, jamoaviy va ijodiy tabiatidir. Bo'lajak ishchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy ta'lim ustasining faoliyati ham ko'p jihatdan potentsial ish beruvchilar va muayyan sohalarning talablarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy mehnat bozori juda dinamik bo'lib, ish beruvchi ma'lum bir ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga qarab, ishlab chiqarish munosabatlaridagi texnik va texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar va istiqbollarni bilish bilan bog'liq bo'lgan talablarni qo'yadi. Odamlar. Binobarin, bu talablarni bajarish shartlaridan biri kasb-hunar ta'limi ustasi potentsial ish beruvchilarning so'rovlarini yaxshi bilishi, bu bilan bo'lajak ishchilarni tayyorlashning yuqori samaradorligini ta'minlashi zarur. Shunday qilib, kasb-hunar ta'limi ustasi o'z tarbiyalanuvchilarini muayyan ijtimoiy va kasbiy vaziyat va jamiyat talablarini hisobga olgan holda, ma'lum bir vaqtning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tayyorlaydi. Shu bilan birga, u madaniyat dirijyori bo'lib, azaliy omilni o'z zimmasiga oladi, shaxsni uning umuminsoniy fazilatlari sintezi sifatida rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va shu bilan kelajak uchun mehnat qiladi. Natija bir shaxsning (masalan, shifokor, sotuvchi va boshqalar) faoliyati mahsuli bo'lgan "shaxs - shaxs" kasbining boshqa vakillaridan farqli o'laroq, o'qituvchilik kasbidagi hissasini aniqlash qiyin. O'qituvchiga ma'lum bir o'qituvchi, oila va boshqa ijtimoiy tuzilmalar. Ko'pincha pedagogika fanida pedagogik faoliyatning yig'indisi sub'ekti tushunchasi aniqlanadi, bu ta'lim muassasasi jamoasini anglatadi. Kasbiy ta'lim ustasi faoliyatidagi ijodkorlik darajasi uning o'z maqsadlariga erishish uchun o'z imkoniyatlaridan qay darajada foydalanishini ko'rsatadi. Shu sababli, kasb-hunar ta'limi ustasining pedagogik faoliyatining ijodiy tabiati ham uning eng muhim xususiyati hisoblanadi, chunki shaxsning rivojlanishi doimo uning mahsuli bo'lib qoladi. Vaqt o'tishi bilan ijodiy ishlayotgan kasb-hunar ta'limi ustasi o'zining pedagogik tizimini yaratadi, bu esa ta'limda eng yaxshi natijaga erishish vositasidir. Kasb-hunar ta'limi ustasi shaxsining ijodiy salohiyati u tomonidan to'plangan ijtimoiy tajriba, unga yangi, o'ziga xos echimlarni, innovatsion shakllarni topish va qo'llash imkonini beradigan psixologik, pedagogik va maxsus bilimlar, qobiliyat va ko'nikmalar asosida shakllanadi. usullari, shu bilan uning kasbiy funksiyalarini takomillashtirish. Zamonaviy pedagogika fanida pedagogik ijod deganda o'zgaruvchan sharoitlarda pedagogik muammolarni hal qilish jarayoni tushuniladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'z faoliyatini quyidagicha quradi: pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, dastlabki ma'lumotlarga muvofiq natijani loyihalashtiradi, mavjud vositalarni tahlil qiladi, olingan ma'lumotlarni baholaydi va yangi vazifalarni shakllantiradi. Kasb-hunar ta'limi ustasining ijodiy faoliyati tajribasi



uning kasbiy ta'limi mazmuniga printsipial jihatdan yangi bilim va ko'nikmalarni kiritmaydi, lekin shunga qaramay, ijodiy faoliyatni tizimli bajarish bilan u shunday shaxsiy xususiyatni tavsiflovchi shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi. Ijodkorlik sifatida. Ijodkorlik- Bu shaxslarning o'ziga xos qadriyatlarni yaratish, nostandart qarorlar qabul qilish chuqur mulkini aks ettiruvchi qobiliyatdir. Biz allaqachon qaror qilganimizdek, kasb-hunar ta'limi ustasi bir vaqtning o'zida ikki turdagi faoliyat bilan shug'ullanadi: pedagogik va kasbiy (sanoat).

Pedagogik faoliyat - bu insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribani keksa avlodlardan o'tkazish va yosh avlod tomonidan o'zlashtirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda muayyan rollarni bajarishga tayyorlanishi. Pedagogik faoliyat nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, birinchi holda, bu faoliyat kasbiy, ikkinchidan, umumiy pedagogik faoliyat bo'lib, u ixtiyoriy yoki yo'q, har bir kishi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanib, boshqa odamlarga va o'ziga nisbatan amalga oshiradi. Pedagogik faoliyat kasb-hunar ta'limi ustalari tizimli ravishda maqsad, motivlar, harakatlar (operatsiyalar), natija birligi sifatida taqdim etilishi mumkin. Pedagogik faoliyatning tizim hosil qiluvchi xususiyati maqsaddir (A.N. Leont'ev). Ta'lim maqsadi asrlar qa'ridan kelgan barkamol shaxsning umuminsoniy ideali sifatida qaralishi mumkin bo'lgan ta'limning strategik maqsadini amalga oshirish bilan bog'liq. Har tomonlama va barkamol shaxsni shakllantirish Qadimgi Yunoniston, Uyg'onish davri Evropasi, G'arbiy va Rossiya utopiklari, frantsuz ma'rifatchilari, shuningdek, SSSRda sotsializm qurish davridagi ta'lim tizimida maqsad edi. Hozirgi vaqtda o'qituvchilar ta'lim idealiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishadi. Mutaxassislar o'rtasida konsensus yo'q. 90-yillarga qadar ta'lim maqsadlari jamiyat ehtiyojlariga qarab belgilanadi va mafkuraviy xususiyatga ega bo'lgan, ammo bugungi kunda shaxsning o'zini o'zi anglash, uning qobiliyatlarini rivojlantirish ehtiyojlaridan voz kechish kerak, degan fikr mavjud. (AV Petrovskiy). Shu sababli, umuman tarbiya maqsadi shaxsga uning qobiliyatiga mos ravishda ko'p qirrali rivojlanishda yordam sifatida shakllanadi. Bu Rossiya Federatsiyasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida o'z aksini topgan. Ta'lim "shaxsning umumiy madaniyatini shakllantirish, uning jamiyat hayotiga moslashishini hal qilish, kasbni ongli ravishda tanlashga yordam berish" uchun xizmat qiladi (9-modda, 2-band). Aytishimiz mumkinki, eng oliy maqsad - shaxsni o'zi va jamiyat bilan uyg'unlikda rivojlantirish. Pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish ta'lim muhitini shakllantirish, o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, o'quv jamoasini yaratish, individual shaxsni rivojlantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog'liq. Asosiy funktsional birlik, uning yordamida pedagogik faoliyatning barcha xususiyatlari namoyon bo'ladi pedagogik harakat(V.A. Slastenin) maqsad va mazmun birligi



sifatida. Pedagogik harakat tushunchasi pedagogik faoliyatning barcha shakllariga (dars, ekskursiya, suhbat va h.k.) xos bo'lgan, lekin ularning hech biriga kamaytirilmagan umumiylikni ifodalaydi. Shu bilan birga, pedagogik harakat ham umumiy, ham individuallikni ifodalovchi maxsus xususiyatdir. Pedagog-pedagog faoliyati bu turli xil pedagogik muammolarning son-sanoqsiz majmuini yechish jarayonidir. Birinchidan, o'qituvchining pedagogik harakati kognitiv vazifa shaklida namoyon bo'ladi. Keyin mavjud bilimlarga tayanib, u o'z harakatining vositalarini, ob'ektini va mo'ljallangan natijasini nazariy jihatdan bog'laydi. Shundan so'ng, kognitiv vazifa amaliy transformatsion harakatga aylanadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'sir vositalari va ob'ektlari o'rtasida qandaydir nomuvofiqlik mavjud bo'lib, bu o'qituvchining faoliyati natijalariga ta'sir qiladi. Natijada, pedagogik harakat shaklidan harakat yana kognitiv vazifa shakliga o'tadi, uning shartlari to'liqroq bo'ladi va hokazo.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika tarixidan xrestomatiya tuzuvchi muallif O. Xasanboyeva T. O'qituvchi 1992 yil.
2. O'zbek pedagogikasi antologiyasi T. O'qituvchi 1995 yil.
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyotidan lavhalar T. Fan 1996 yil.
4. Azarov N.P. Bolalarni sevish san'ati. T. O'qish. 1996 yil.
5. Jonmatov X.A. Abu Ali ibn Sino. Ta'lim tarbiya haqida, T-O'qituvchi. 1980 yil.
6. Sharifxo'jayev M, Mamatov N. O'zbekiston milliy istiqlol mafkurasi. T. O'qituvchi. 1994 yil.

## MINTAQA IQTISODIYOTINI EKOLOGIYALASHTIRISH OMILLARI

*Raximova Shaxnoza Xamzayevna*

*Osiyo Xalqaro Universiteti MM1-IQ - 23-guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Mintaqaviy taraqqiyotni jadallashtirish, aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish, hududlardagi real vaziyatni har tomonlama va chuqur o`rganish, zamon talabiga mos holda yangi texnologiyalardan foydalanish turmush tarzini yaxshilashga olib keladi. Ushbu maqolada Mintaqa iqtisodiyotini ekologiyalashtirish omillari haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** ta`lim sohasi, iqtisodchilar, ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlik, integral ko`rsatkichlar, diversifikatsiya, ilg`or funktsional imkoniyatlar, bozor munosabatlari.

### KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ta`lim sohasini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida qaralib, jahon miqiyosida "O`zbek modeli" deb atalgan uzluksiz ta`lim tizimi yaratildi. Ta`limning barcha turlarini rivojlantirish bo`yicha salmoqli natijalarga erishilib, jumladan, tubdan yangilangan oliy ta`lim tizimi yaratilib, iqtisodiyotni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, ishlab-chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo`yicha qator qonunlar, farmon va qarorlar, puxta o`ylangan dasturlar qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda.

O`zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida har tomonlama yetuk, jahon talablariga javob beradigan iqtisodchilarni tayyorlashda boshqa fanlar qatori «Iqtisodiy geografiya va ekologiya» fani ham katta o`rin tutadi. U bo`lajak iqtisodchilarga tabiiy resurslar, ularning jahon va O`zbekiston bo`yicha tarqalishi, jahon va O`zbekiston aholisi, jahon sanoati, qishloq xo`jaligi, transporti va xalqaro iqtisodiy aloqalar, geoekologiya muammolar va ularning yechimi, O`zbekistondagi tarkib topgan ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlikni ta`minlash to`g`risida bilimlar beradi.

Bugungi kunda jadal sur`atlar bilan rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitida fanni o`rganish ehtiyoji kun sayin kengayib bormoqda. Zamonaviy mutaxassis kadr iqtisodiy geografiya va ekologiyaning sir-asrorlarini mukammal o`zlashtirgan bo`lishi davr talabidir.

Ekologik va iqtisodiy tadqiqotlarning axborot jihatlarini tahlil qilish bizga axborotni qo`llab-quvvatlash tizimi hududiy ma`lumotlarni yig`ish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun ilg`or funktsional imkoniyatlarga ega texnologiyalarga asoslangan bo`lishi kerakligi to`g`risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Eko-logik va iqtisodiy xaritalarni yaratishda kat-ta hajmdagi ma`lumotlardan foydalaniladi: fizik va iqtisodiy-

географик materiallar, statistik ma'lumotlar, analitik va hisoblangan integral ko'rsatkichlar. Axborotning butun hajmini o'zaro bog'lash muammosini ishlatil-gan materiallarni yagona geoaxborot tizimi (GAT)ga birlashtirishga imkon beradigan, yangi kelgan ma'lumotlarni zudlik bilan qayta ish-lashni va ularning kartografik vizualizatsiya-sini ta'minlaydigan geoaxborot texnologiya-lari yordamida hal qilish mumkin. Mintaqaviy rivojlanishning turli stsenariylarini prog-nozlashga asoslangan modellarni tezkor qurish uchun keng istiqbollar ochiladi [2].

So'nggi o'n yilliklarda juda ko'plab axborotni yig'ish, qayta ishlash va dastlabki tahlil qilishning avtomatlashtirilgan texnik tizimlari paydo bo'ldi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimlarning hech biri si-fat jihatidan tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilishga qo'yiladigan barcha talablarni qondiradigan yakuniy tahliliy mahsulotlarni ishlab chiqarishga qodir emas [3].

Shu munosabat bilan, geografik axborot tizimlaridan iqtisodiy tartibga solish maqsadlarida foydalanish masalasi tobora ortib bormoqda va barqaror mintaqaviy rivojla-nishni iqtisodiy tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, va hududlar va umuman davlat manfaat-larini maksimal darajada oshiradigan asosiy vositasi sifatida qaralmoqda [4].

Hozirgi paytda jahon iqtisodiyoti ri-vojanishning yangi modelini yaratish va tat-biq etishda, mamlakatlarning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish bilan bog'liq tadqiqotlarda global ekologik o'zgarishlar hi-sobga olinmoqda va "Yashil iqtisodiyot" shaklla-nishi ustuvor maqsad etib qo'yilmoqda [5].

Hozirgi kunda axborot tizimining ushbu bo'limi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bo-rishi natijasida u nafaqat texnik sohalarda, balki hayotimizning turli ijtimoiy sohalarida ham qo'llanilib kelinmoqda. GATning qo'llanilishi sohalari keng bo'lib, u turli holatlar-da, jumladan sog'liqni saqlashda yangi klinika va shifoxonalarni geografik jihatdan mos va aholiga qulay qilib joylashtirish jarayonida, yuk tashish bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun yo'l marshrutlari va jadvallarini tuzish hamda aniqlashda, avtomobil yo'llarini quruvchi korxonalariga yangi trassa va yo'llarni loyihalashda eng maqbul variantni tanlash paytida, shuningdek, davlat fondidagi va fermerlar uchun yangi yerlarni to'g'ri va oqilona hisoblashda, yangi yerlarni o'zlashtirishda, yerlarning holatini aniqlash va ular to'g'risida yetarli ma'lumot olishda juda qo'l keladi [6].

So'nggi paytlarda "Dunyoning geoiqtiso-diy atlasini" yaratish va undan global jarayon-larning keng panoramasini aks ettirishda foydalanish imkoniyatlari haqida qiziqarli g'oyalari ilgari surilmoqda. Bu g'oyalardan biri E.G.Kochetov tomonidan ilgari surilgan [7].

Dunyoning geoiqtisodiy atlasining quyi-dagi asosiy sahifalari taqdim etiladi: 1) siyo-siy; 2) tashkiliy va iqtisodiy; 3) geomoliya; 4) harbiy-strategik; 5) tovar va xizmatlar; 6) re-surs; 7) ekologik.



Hozirgi paytga kelib, Internet va dav-riy ilmiy jurnal va adabiyotlarda GATning ko`plab ta`riflari keltirilgan. Biz ayrimla-rini ko`rib chiqamiz:

1. Alber R. GAT – geografik ma`lumotlari-ni saqlash, ularga ishlov berish va natijalarni tasvirlay oladigan apparat-dasturli vosita va inson faoliyatidan iborat bo`lgan majmuadir [8].

2. Berry J. GAT – ichki pozitsionirlangan avtomatik fazoviy axborot tizimi bo`lib, ma`lumotlarni kartografik tasvirlash, tahrir qi-lish va boshqarish uchun yaratiladi [7].

3. Clarce K.C. GAT – fazoviy taqsimlangan hodisalar, jarayonlar va voqealarni kuzatishda nuqtalar, chiziqlar va maydonlar ko`rinishida bo`lgan manbalarning ma`lumotlar bazasidan iborat bo`lgan axborot tizimining maxsus hola-tidir [10].

4. Konecny M. GAT – geografik tadqiqotlar va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun qulay bo`lgan ma`lumotlarni to`plashni, EHM xotirasiga kiritishni, ishlov be-rish va uzatishni amalga oshiruvchi shaxslar, texnika va tashkillashtirish vositalaridan iborat bo`lgan tizimdir[11].

5. Koshkarev A.V. GAT – fazoviy ma`lumot-larni yig`ish, ularga ishlov berish, tasvirlash, tarqatish, atrof-muhit ob`yektlarini ro`yxatga olish, natijani tahlil qilish, modellashti-rish, bashoratlash va boshqarish bilan bog`liq ilmiy va amaliy geografik masalalarni yechishda samarali foydalanish uchun joy haqidagi ma`lumotlar va bilimlarni birlashtirishni ta`minlaydigan apparat-dasturli inson-ma-shina majmuasidir[3].

6. Simonov A.V. GAT – geografik koordinatali ma`lumotlarni raqamli tasvirlash, to`ldirish, boshqarish, ko`paytirish, tahlil qilish, matematik-kartografik modellashtirish va obrazli tasvirlash uchun yaratilgan apparat-das-turli vositalar va algoritmik muolajalar ti-zimdir [4].

Bu keltirilgan ta`riflarda GAT tushunchasi to`g`risida o`xshash jihatlar mavjud bo`lsada, umuman bir-biridan farqlanuvchi iboralar ham ishlatilgan. Bundan tashqari ayrim olimlarning ta`kidlashicha, butun dunyoda geoaxborot tizimi (GAT) texnologiyalar Yerni keng foy-dalanuvchilar doirasi (Digital Earth) yo`nalishi [4,5] tomonidan o`rganish, davlatlarning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari kontekstida muhim ahamiyat kasb etmoqda [1], ularning barqaror rivojlanishini ta`minlash [2] va yuqorida qayd etilgan ilmiy-ishlab chiqarish vazifala-ri kompleksini hal etish muqarrar ravishda geografiya, kartografiya, geoinformatika va unga bog`liq yo`nalishlar bo`yicha o`quv jarayoni-ning yuqori darajasini ta`minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu masalada bir nechta vektorlarni ajratib ko`rsatish tavsiya etiladi: kartografiya fanining an`anaviy usullari va zamonaviy texnologiyalarning uyg`un kombinatsiyasi[3], fanlararo aloqalarni mustahkamlash [4], fan-lararo tadqiqotlarda interfaol va loyihaga asoslangan ta`lim texnologiyalaridan foyda-lanish, barqaror

rivojlanish sohasi [5], o`quv jarayoniga va talabalarning ilmiy faoliyatiga geoportal tizimlar va kartografik veb-xiz-matlarni joriy etish [6] va boshqalar.

GAT ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning hududiy va vaqtinchalik xususiyatlari to`g`risi-da zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ishlaydigan ijtimoiy-texnik komplekslarni anglatadi. Geoinformatika va kartografiya-ning o`zaro ta`siri geoinformatsion xarita-lashni shakllantirish uchun asos bo`ldi, uning mohiyati GAT asosida tabiiy va ijtimoiy-iq-tisodiy geotizimlarni avtomatlashtirilgan axborot va kartografik modellashtirishdir. Avvalo, bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish-ga qaratilgan xaritalarni tizimli (odatda ketma-ketlikda) yaratish va ulardan foydalanishni bildiradi.

Interaktiv geoaxborot xaritalashning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: hududning istalgan qismini ma`lum darajadagi tafsilotlar bilan ko`rsatish, hududiy tizimning holati to`g`risida ma`lumot olish, ma`lumotlarni to`plash va tuzatish, ko`plab hisob-lash muammolarini hal qilish, xaritada axborotni qayta ishlashning mavjud analitik usullaridan foydalanish va yangi ma`lumotlarni kiritish. Shu bilan birga, xaritadan foydalanish va tahlil natijalarini olish uchun samarali imkoniyatlarga ega bo`lishning xar xil shakllari mavjud (jadval shakli, kartografik tasvirlar, grafikalar va boshqalar).

Interaktiv geografik axborot xaritalari – qabul qilingan an`anaviy belgilar tizimida dasturiy vositalar yordamida vizualiza-tsiya qilingan va hududni aks ettirish va tahlil qilish, axborot va hisoblash muammolarini hal qilish uchun mo`ljallangan raqamli xarita. Bu sizga statistik ma`lumotlarni ularga bog`lash, matematik usullar yordamida tahlil qilish, ma`lumotlarni jadval va kartografik shaklda namoyish etishni tashkil qilish imkonini beradi.

Ekologik va iqtisodiy tizimlarni mo-dellashtirishda tematik ma`lumotlarni xar xil rangga ega bo`lgan namoyish etishga imkon beradigan rastrli GAT usullaridan foydalanish usuli juda keng tarqalgandir. Ishlab chi-qilgan ekologik va iqtisodiy xarita yerdan foydalanish, iqtisodiy-ijtimoiy rejalashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini boshqaradigan ma`muriy tashkilotlar va mintaqaviy organlar uchun ma`lumot bazasi sifatida xizmat qiladi. GAT texnologiyalari-dan foydalanish xaritadan statistik xizmat-lardan olingan ma`lumotlarni namoyish qilish va ularni o`z vaqtida qayta ishlash va namoyish qilishni ta`minlaydigan operatsion huj-jat sifatida foydalanishga imkon beradi. Geo-axborot xaritalashning muhim xususiyatlaridan biri uning ko`p miqyosli tabiati bo`lib, u mavjud ekologik va iqtisodiy vaziyatni turli darajalarda tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish strategiyasi va sxemalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini ta`minlashning GAT texnologiyalari asosida diagnostik indikatorlarini ishlab chiqish va uning dasturiy ta`minotini yaratish,

hududiy taraqqiyotning axborot bazasini ti-zimlashtirish, quyidagi vazifalarni yechish imkoniyatini yaratadi:

ishlab chiqarish kuchlarini (joylashtirish) oqilona tashkil etishda markaziy, hududiy (viloyat hokimliklari) va mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini aniqlashtirish, hududiy darajada iqtisodiy siyosat yuritish-ning maqsadi, vazifasi va dastaklarini (instrument) takomillashtirish;

hudud iqtisodiyotining tarmoq tuzili-shini optimallashtirish va ustuvor sohalarni rivojlantirish strategiyasi, hududiy iqtisodiy munosabatlarining me'yoriy asoslarini shakllantirish;

investitsion jozibadorlik darajasini oshirish, hudud ishlab chiqarish kuchlarining mahalliy ekologik vaziyatga ta'sirini, ishlab chiqarish jarayonlarini atrof-muhitga ta'sirini aniqlash.

Hozirgi kunda jahon miqyosida GAT texno-logiyalaridan foydalanish va ma'lumotlar bazasini yaratish barcha sohalarda, shuningdek, iqtisodiy hayotda ham zarur bo'lgan ma'lumotlar-ni to'liq avtomatlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda (bunda Amerika Qo'shma Shtatlarining Geografik axborot tizimi soha-sida faoliyat yurituvchi YeSPI kompaniyasi tomonidan yaratilgan xaritalar va geografik ma'lumotlar bilan ishlashga mo'ljallangan dasturdan foydalaniladi) [8]. Ilm-fan va amaliyotning hozirgi yoki kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini tizimli tahlil qilish natijalarini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar, kartografik materiallar, shu jumladan, prognoz va tavsiviy kartografik hujjatlar bilan tezkor ravishda ta'minlash yanada murakkab vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ma'lumotlarni sifatli tahlil qilishda tezkor va interaktiv texnologiyalar zarurdir. Bu kabi muammolarni yechishda albatta raqamli texnologiyalardan foydalanish samaralidir. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik vaziyat indikatorlarini tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda GAT texnologiyalaridan foydalanish ancha imkoniyatlar yaratadi. GATning geodeziya va ayniqsa, kartografiya sohasida qo'llanilishidan bir qancha yengillik-lar kelib chiqadi. Bunda ma'lumotlarni qayta ishlash va bosmaga chiqarish kabi ishlarga sarflanadiga vaqt va xarajatlar keskin kamayadi. Bundan tashqari ma'lumot olish bilan bog'liq bo'lgan ishlar vaqti qisqaradi hamda olinayotgan ma'lumotlar hajmi va sifati ortadi.

Ekologik kartalarni tuzish uchun quyida-gi birlamchi manbalar kerak:

- yerning masofadan zondlash ma'lumot-lari;
- mazkur hudud bo'yicha mavzuli kartalar yoki shunga yaqin mavzudagi kartalar;
- dala kuzatuvlari ma'lumotlari;
- ekologik monitoring va statsionar kuzatuv ma'lumotlari;



➤ aholi salomatligi, muhit ifloslani-shi, tabiatdan foydalanish bo'yicha statistik ma'lumotlar [8].

Xulosa qilib aytganda, davlat va jamiyatni rivojlantirishning strategik vazifalarini hal etish geografik axborot tizimlarini (GAT) yer tuzish, tabiatdan foydalanish, hududiy rejalashtirish, yerdan foydalanishni boshqarish va hokazolarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotiga to'liq joriy etishga asoslanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кошкарев А.В. Геоинформатика в инфраструктурном обеспечении цифровой экономики. 2019. № 1. – С. 119–126.
2. The Experience in Information Support for Sustainable Development of Territories with Regional Specifics /O.Yu. Chereshnya, P.De Maeyer, V. Gribok. //Science. Innovations. Technologies. 2021. №4. – P. 63–76.
3. Лурье И.К., Прасолова А.И. Университетское картографическое образование в эпоху перемен. //Геодезия и картография. 2017. № Спецвыпуск. – С. 4–15.
4. Пошивайло Я. Г., Колесников А.А. Разработка концепции подготовки кадров для геопространственной индустрии в рамках сквозных технологий цифровой экономики. //ИнтерКарто. ИнтерГИС. Геоинформационное обеспечение устойчивого развития территорий: материалы Междунар. конф. – М.: Географический факультет МГУ, 2021. Т. 27, ч. 1. – С. 29-43.
5. Щитова Н.А. Формирование компетенций в области устойчивого развития у студентов по направлению «География» / Н.А. Щитова, В.С. Белозёров, Ю.Ф. Зольникова. //ИнтерКарто. ИнтерГИС. Геоинформационное обеспечение устойчивого развития территорий: материалы Междунар. конф. – М.: Изд-во Москов. ун-та, 2020. Т. 26, ч. 1. – С. 22–29.
6. Кошкарев А. В. Образовательные геопорталы: данные и сервисы. //Геодезия и картография. 2017. № Спецвыпуск. – С. 33-40.
